

Mustaqil O‘zbekiston



O‘qing va eslab qoling.

*Mustaqil yurtda tinch va farovon
yashash – eng oliy ne‘mat!*

*Sh.M. Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*



O‘qing.

1991-yilning 31-avgust sanasida mamlakati-miz o‘z mustaqilligini e‘lon qildi. Shu davrdan boshlab, har yili 1-sentabr kuni Vatanimizning barcha hududlarida ushbu bayramni nishonlaymiz.

Mustaqillik qanday kiyinishni, qanday o‘yin o‘ynashni yoki nimalar tasvirini chizishni o‘zing tanlashing demakdir. Mamlakat mustaqilligi esa o‘z taraqqiyot* yo‘lini va yo‘lboshchilarini o‘zi tanlash, o‘z qonunlarini belgilash va xalqiga g‘amxo‘rlik qilishni anglatadi. Mustaqil davlat kuchli bo‘lishi va doim rivojlanib borishi zarur, bunday davlatda yashovchi har bir inson tinch va osuda hayot kechirishi lozim.

O‘zbekistonning mustaqilligi milliy ramzlarda ham aks etadi. Ularning har biri o‘ziga xos ma’noga ega.

1 Bayroq 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan.

U moviy, oq va yashil rangli uchta gorizontal endan iborat bo‘lib, ular orasidan ikkita qizil hoshiya o‘tkazilgan. Moviy rang osmon va suvni, oq rang tinchlik va poklikni, yashil rang esa tabiat va farovonlikni* ifodalaydi. Bayroqda tasvirlangan yangi oy va yulduzlar tinch va musaffo osmon timsolidir.

2 Gerb 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan. U baxt va to‘kin-sochinlikni ifodalaydi. Markazida tasvirlangan Humo qushi esa erkinlik va yuqori marralarga intilishni anglatadi. Gerbning o‘ng va chap tomonida bug‘doy boshhoqlari va paxta chanoqlari tasvirlangan bo‘lib, O‘zbekistonning hosildor yerlari haqida so‘zlaydi. Zarrin* nurlarini sochayotgan quyosh esa mamlakatimizning yorug‘ kelajagi ramzidir.

3 Madhiya 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan. Bu tantanali qo‘shiq bo‘lib, bayram va muhim tadbirlarda ijro etiladi. Madhiyada Ona-Vatanimizga bo‘lgan mehr-muhabbat, O‘zbekistonning boy tarixi va an‘analari, xalqimizning tinchlik va farovonlikka intilishi kuylanadi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mamlakatimiz rivoji va gullab-yashnashi uchun ko‘pgina ishlarni amalga oshirmoqda, o‘z xalqiga g‘amxo‘rlik qilib, har bir fuqaro* va navqiron* avlod o‘z yurti bilan faxrlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Prezidentimiz mamlakatimizning boy madaniyati va yutuqlarini butun dunyoga tanitish uchun uni ochiq va muvaffaqiyatli davlatga aylantirish yo‘lida tinimsiz harakat qilmoqda.



*Quchog‘i bog‘-u bo‘ston,
Betakror, jannatmakon,
Seni tan oldi jahon,
Mustaqil O‘zbekiston!*

*Musaffo osmonimiz,
Hur Vatan posbonimiz.
Doim gullab-yashnasin
Shu aziz bo‘stonimiz.*





taraqqiyot – rivojlanish, yuksalish

farovonlik – to'kin-sochinlik

zarrin – oltin rangli

fuqaro – davlatga huquqiy jihatdan mansub bo'lgan shaxs

navqiron – yosh



1. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qachon e'lon qildi?
2. Yurtimizda **Mustaqillik** bayrami qachon nishonlanadi?
3. **Mustaqillik** deganda nimani tushunasiz?
4. Davlatimiz ramzlarini sanang. Ular haqida so'zlab bering.
5. Gerbda qaysi daryolar tasvirlangan?



Matnni o'qing va gapirib berishga tayyorlaning.

